

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIDA JANGOVAR VA
MEHNAT SHUHRATI MUZEYLARINING AHAMIYATI

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti
Harbit ta'lim fakulteti kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mexnat shuxrati va tarixiy muzeylarning tutgan roli, hamda mamlakatimizda va dunyodagi ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy muzelar haqida malumotlar, muzeylarga tashrif buyurish davomida yoshlar olishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy jihatlari haqida qisqacha yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Muzeylar, Vatanga muhabbat, e'tibor, . Temuriylar tarixi, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi kabi o'nlab maskanlar barpo etilgani va Samarqand, Buxoro, Xiva ochiq osmon ostidagi muzey, Tarix muzeylari, tarix-arxitektura va tarixiy adabiyot muzeylari, O'lkashunoslik muzeylari, Xotira-yodgorlik muzeylari, San'at, muzeylari, Sohali muzeylar, Turli muzeylar.*

Muzeylar – tarixning sirli xilqatlarini o'zida mujassam etgan holda xalqlar madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi ko'prik hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqning ma'naviy dunyosini boyitish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda ham muzeylarning o'rni beqiyos. Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganish, ularni targ'ib etish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu madaniyat maskanlari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina bo'lib, u yillar davomida boyitilib, tarixdan meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan san'at asarlari saralanib, muzeylardan joy olib, umuminsoniy boylikka aylantirilmoqda.

Bugungi kunda muzeylarimizga katta ahamiyat qaratilmoqda, Prezidentimiz tashabbusi bilan 10 yillik davlat dasturini qabul qilinganligi, ya'ni 2017-2027-yillar davomida yurtimizdagi barcha muzeylarni rekonstruksiya qilish, qayta ta'mirlash va ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash aynan madaniyat sohasidagi bugungi kun dolzarb masalalaridan biri edi. Yuksak e'tibor tufayli ko'plab muzeylar bunyod etildi, mavjudlarining ishi esa zamon talablari darajasida yo'lga qo'yilib, muzey-qo'riqxonalar tashkil qilindi. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi kabi o'nlab maskanlar barpo etilgani va Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi ochiq osmon ostidagi muzeylar qaytadan ta'mirlangani fikrimiz tasdig'idir.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Vatanimiz ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham yangi davr boshlandi.

Respublikamiz Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni 1998- yil 12- yanvarda qabul qilinib, u muzey va muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan muzeylarfaoliyatinitakomillashtirish, ularni xalqning ma'naviy axloqiy kamolotidatutgano'rini yanada oshirish maqsadida "O'zbekmuzey" jamg'armasi tuzildi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamoa boshqaruv xo'jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta'limi tizimida ja'mi 1200 dan ortiq muzeylar bo'lib, ularning eng yiriklari poytaxtda joylashgan. Shu bilan birgalikda o'nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblarning uy muzeylari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi tarixiy hujjatlar, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, tabiiy

boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganib ko'rgazmalarga qo'yish va keng xalq ommasiga havola qilishdan iborat. Muzeylar aholining keng tabaqalari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib boradi.

Muzeylar faoliyati xalqning tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishi, qo'lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma'naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida ommaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni ma'naviy kamolotga etkazishning eng etakchi vositalaridan hisoblanadi.

Yurtimizda yangi-yangi muzeylarning tashkil etilishi, poytaxtdagi eng yirik va nufuzli Temuriylar davri tarixi, qatag'on qurbonlari xotirasi, mamlakatimiz janubida joylashgan Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyining ochilishi hukumatimiz tomonidan muzey va muzeyshunoslik sohasida nihoyatda katta ishlarning amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu vaqtgacha ham faoliyat ko'rsatib turgan barcha katta-kichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlol ruhida qayta tashkil etish masalasiga ham alohida e'tibor bilan qaralmoqda.

Jumladan, O'zbekiston tarixi muzeyining qaytadan ochilishi, muzey ekspozitsiya zallarining yangi loyiha va rejalar asosida jihozlanishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Barcha viloyat hududlarida joylashgan boshqa muzeylar faoliyatida ham yangilanish, yaxshilanish sari qadam qo'yilayotgani sezilib turibdi. Chunki muzeylar shu kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan har tomonlama rivojlangan, ma'naviy etuk, komil inson tarbiyasida o'ziga xos alohida o'rin tutadi. Muzeylarda saqlab, namoyish etilayotgan tarixiy hujjat va xalq madaniyatiga oid ashyolar yangi avlodga ajdodlari o'tmishi, hayoti, yuksak ma'naviyatidan darak berib, uning vositasida Vatanga bo'lgan muhabbat, ota-bobolari qoldirgan madaniy merosga nisbatan hurmat, e'zoz, ularga munosib vorislar bo'lish tuyg'usini uyg'otadi. Shuningdek, yoshlarni odobu axloqqa, halolliq, poklikka, botirlikka, mardlik, vatanni himoya qilish, ajdodlaridek mohir, sabr-qanoatli, aqlli, adolatli, haqgo'y, mehr-

muruvvatli bo'lishga chaqiradi. Madaniy merosimizni har tomonlama o'rganish jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarda milliy g'ururning, milliy iftixor tuyg'usining shakllanish jarayonini amalga oshiradi.

Muzeylar tuzilishi jihatidan ikki xil bo'ladi: ochiq turdagi muzeylar va yopiq muzeylar. Ochiq turdagi muzeylar sirasiga mamlakatimizdagi buyuk tarixiy shaharlar – ochiq osmon ostidagi yodgorlik-arxitektura, me'moriy inshootlar kiradi. Bunga ko'hna Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon, Toshkent va boshqa shaharlardagi tarixiy me'moriy yodgorliklarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Undan tashqari Imom Buxoriy, Ahmad alFarg'oniy, Ahmad Yassaviy va boshqa ulug' allomalar xotirasi sharafiga bunyod etilgan koshonalar, haykal va maydonlar ham ochiq turdagi muzeylar hisoblanadi. Bu muzeylarda xalqning ko'p yillik me'moriy tajribasi, bilimi, malakasi, madaniyati va ma'naviyati yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning qurilish uslubidan tortib ishlatilgan naqsh va bo'yoqlarigacha tomoshabinda hayrat va zavq hissini uyg'otadi. Ajdodlarimizning va ularning davomchilari shu zamonning mohir usta va me'morlari san'ati butun dunyo ahlini o'ziga rom etgan holda o'zbek xalqining yuksak ma'naviyati va madaniy hayotidan darak berib turadi.

Muzeylar mazmun jihatdan quyidagi turlarga birlashadi:

- Tarix muzeylari, tarix-arxitektura va tarixiy adabiyot muzeylari;
- O'lkashunoslik muzeylari;
- Xotira-yodgorlik muzeylari;
- San'at muzeylari;
- Sohali muzeylar;
- Turli muzeylar.

Tarix, tarix-arxitektura va tarixiy adabiyot muzeylari xalqimizning uzoq o'tmishi, ko'p asrlar davomida qo'lga kiritgan yutuqlari, fan, ilm ma'rifatga qo'shgan hissasi, tarixiy jarayonlar, voqea-hodisalar, yuz bergan o'zgarishlar, burilishlar, urush va madaniy yuksalishlar haqida hikoya qiladi. Me'moriy inshootlarning qurilishi xalqimizning amaliy san'atidan, mahorati va malakasidan darak beradi. Fanga, ma'naviyatga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar, olimu alloma, shoiru nosir, tarixchi ijodkorlar faoliyatini yoritishga bag'ishlangan muzeylar tarixiy adabiyot muzeylari deyiladi.

Respublikamiz poytaxti Toshkentda buyuk mutafakkir AlisherNavoiy nomi bilan faoliyat ko'rsatayotgan Adabiyot muzeyi mavjud. Respublikamizning boshqa qator viloyatlari markazlarida ham mahalliy adiblar va mutafakkirlar hayoti va ijodini targ'ib qiluvchi adabiyot muzeylari faoliyat yurgizib kelmoqda.

Viloyat, shahar, tuman tabiiy sharoiti, tarixi, xo'jaligi, madaniyati va turmushini xarakterlovchi hujjat va yodgorliklarni topib namoyish etuvchi muassasa O'lkashunoslik muzeylari deb nomlanadi. Ularda ma'lum hududning tabiiy sharoitidan tortib, o'ziga xos hayvonot va o'simlik dunyosi, shu erda istiqomat qilayotgan xalqning kasb-kori, mashg'uloti, san'ati va boshqa xususiyatlari ochib beriladi. Bunday muzeylar tomoshabinga yerlik xalqning ma'naviy qiyofasini namoyish qiladi.

Xotira-yodgorlik hamda yodgorlik uy-muzeylari vatanimizning mashhur kishilari, arboblari, yozuvchi, rassom, kompozitor va olimlari xotirasini adabiy lashtirish uchun xizmat qiladi. Imom Buxoriy majmuasi, Bahovuddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Al-Farg'oniy majmualari, Temuriylar davri madaniyati tarixi, qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari, G'afur

G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor va boshqa san'atkorlar hayoti va ijodini yorituvchi yigirmaga yaqin uy-muzeylar mavjud bo'lib, ular xalqimizga ma'naviy oziq berib turibdi.

San'at muzeylari sirasiga tasviriy san'at, amaliy san'at, musiqa, kino, teatr san'ati yutuqlari muzeylari, suratlar ko'rgazmasi va hokazolar kiradi.

Sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa sohalaridagi

yutuqlarni namoyish etuvchi madaniy-ma'rifiy maskanlar sohali muzeylar deb ataladi.

Bulardan tashqari xalq maorifi, sog'liqni saqlash, boshqa korxonalar tarixini yorituvchi, maktablarda tashkil etilayotgan hududiy tarixiy joy va xalqimizning mehnat va jangovar shuxratiga oid muzeylar ham faoliyat yurgizmoqdalar. Bu ishlarni tashkil etishda asosan muayyan soha fidoiylari, jamoatchi, tarixchi mutaxassislar, o'qituvchilar faol qatnashadilar. Muzey ijtimoiy vazifasiga ko'ra ilmiy tadqiqot-ma'rifat (muzeylarning ko'pchiligi asosan shu vazifani o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, ularni ommaviy muzeylar deb ham yuritishadi); tadqiqot (ilmiy-tadqiqot institutlari qoshida o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'taydi) va o'quv muzeylariga, yo'nalishi va kolleksiyalariga qarab tarmoq, o'lkashunoslik (kompleks) va memorial muzeylargabo'linadi.

Tarmoq muzey ishlab-chiqarish, fan, san'atning biror tarmog'iga tegishlibo'ladi (masalan, tarix muzeylari, zoologiya muzeylari). O'lkashunoslikmuzeylari muayyan ma'muriy hududning tarixi, tabiati, xo'jaligi, san'ati, etnografiyasi va boshqa sohalarini kompleks aks ettiradi. Memorial muzeylar muhim tarixiy voqealar, atoqli arboblarga bag'ishlanadi.

Muzeylar qachon paydo bo'lgan va ularning ahamiyati nimalardaniborat? «Muзей» - yunoncha atama bo'lib, «muza» so'zidan kelib chiqqan. Qadimgi Yunon mifologiyasida san'at va fan ma'budalari «muzalar» deb yuritilgan. Muzalar, ya'ni ma'budalar yoki xudolar shoir va san'atkorlarga ilhom beradi, deb e'tiqod qilingan. Shuning uchun antik poeziya asarlarining boshida ko'pincha Muzaga murojaat qilingan. San'at va adabiyotga, tarixga oid birqancha ma'budalar mavjud bo'lgan. Jumladan, antik shoirlardan Gesiod(mil.avv. VII asr) 9 ta ma'budani sanab o'tadi: Klio - tarix; Evterpa - poeziya va musiqa; Taliya - komediya; Melpomena - tragediya; Terpsixora - o'yin; Erato - muhabbat lirikasi; Poligileniya - gimnlar; Uraniya - astronomiya; Kalliopa - epos ma'budalaridir. Appolon Muza xudosi hisoblangan. Muza obrazi Evropatasviriy san'atida o'z ifodasini topgan. Ma'budalar - turli shakldagihaykallar alohida ehtirom bilan muqaddas sanalgan imoratlardasaqlangan.

Odamlar ma'budalarni ziyorat qila turib, orzu-istaklarini amalga

oshirishini tilaganlar. Natijada muzalar joylashgan dargoh insonlarningziyoratgohiga aylangan. Bu dargohda eng asl buyumlar, nodir, qimmatbahoashyolar va go'zal san'at asarlari ham saqlana boshlagan. Ular bu bino sahninibezash bilan birga, ziyoratchilar qalbida ham alohida taassurot qoldirgan. «Muzeun» - bu go'zal buyumlar saqlanadigan, ilhom parilari to'planadigan joy degan ma'noni anglatadi.

Shuningdek, «Moziy» so'zining «Muзей» atamasiga monand ekanligini ham e'tirof etish kerak. «Moziy» so'zining lug'aviy ma'nosi tarix, o'tmish degan mazmunni anglatadi. Muzeylar ham vazifasiga ko'ra tarixni, o'tmishni namoyish qilish bilan avlodlarga bilim beradi. Shunday ekan, muzeylar tarixdan saboq beradi, u xalqning asrlar davomida qo'lga kiritgan yutuqlari, ilm-ma'rifatga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot beradi, ko'rgazmali, ishonchli, ilmiy asoslar bilan insoniyatga ma'rifat tarqatadi desak xato bo'lmaydi.

Muzey dastlab Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan. Bu mamlakatlarda ayrim san'at yodgorliklari ibodatxonalarda to'planib, turli ko'rgazmalar tashkil etilgan. Keyinchalik Ellinizm davrida muzey kolleksiyalari vujudga keldi. San'at, madaniyat va fan erishgan yutuqlarning namunalaridan iborat kolleksiyalar to'plash Uyg'onish davrida Italiyada, so'ng esa Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda rasm bo'ldi.

Gretsiyadagi Gelikon tog'i yonida turli tasvirdagi yodgorliklar saqlanadigan makon bo'lib, u ham muzeylarning ilk ko'rinishlaridan biri

hisoblanadi. Muzeylar dastlab badiiy asarlar majmuiga keyin esa moddiy va ma'naviy ma'rifiy yodgorliklarni yig'uvchi va saqlovchi muassasaga aylangan. O'zining ulkan tarixiy obidalari bilan nafaqat Evropa va Osiyoda, balki butun dunyoga mashhur bo'lgan Italiya davlatida ham XV asrga kelib, mavjud yodgorliklarni muntazam ravishda to'plash ishlari avjiga chiqqan. XVI - XVII asrlarga kelib, Fransiya, Angliya, Germaniyada ham muzeylar tashkil etish odat tusiga kirgan. Londondagi «Britaniya muzeyi»(1753), Parijdagi «Luvr» muzeyi (1793) g'arbiy Evropadagi ilk ommaviy muzeylardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.Tilavoldiyevning “ Harbiy vatanparvarlik asoslari” darsligi Farg'ona 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Mudofaa to'g'risida”gi Qonuni,
3. O'zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi,
5. O'zbekiston Respublikasining Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha Nizomi,
6. «Shunqorlar» harbiy-sport o'yinlarining Nizomi
7. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov «Vatan tuyg'usi»
8. «Vatan himoyasi-muqaddas burch» T. Harbiy nashriyot, 2000 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining «Vatanparvar» gazetasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining «O'zbekiston Qurolli Kuchlari jurnali» T.